



SULTON QOBUS DAVRIDA UMMON SULTONLIGIDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Ilmiy rahbar: t.f.n., katta o'qituvchi Tursunova Suriya Minavarovna

Muallif: Razzoqova Zarina O'tkir qizi

TDSHU, 1-bosqich magistri

zarinarazzoqova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-3518-9735>

<https://www.webofscience.com/wos/author/record/OKS-6914-2025>

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1970-1990- yillarda Sulton Qobus bin Said boshqaruvi davrida Ummon Sultonligida siyosiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada 1970-yilda amalga oshirilgan hokimiyat almashinuvi natijasida mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish zarurati yuzaga kelgani, markazlashgan davlat boshqaruvining shakllanishi, vazirlik va idoralar tizimining tashkil etilishi, davlat xizmatining institutsionallashuvi hamda maslahat organlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi yoritiladi. Shuningdek, siyosiy barqarorlikni ta'minlashda qabila institutlari, diniy omillar va markaziy hokimiyat o'rtasidagi muvozanatning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning natijalari Sulton Qobus tomonidan amalga oshirilgan siyosiy islohotlar zamonaviy Ummon davlatchiligining huquqiy va institutsional asoslarini yaratganini ko'rsatadi.

Abstract: This article examines the process of the formation and development of political institutions in the Sultanate of Oman during the reign of Sultan Qaboos bin Said between 1970 and 1990, drawing on historical sources and contemporary scholarly research. The study explores how the transfer of power in 1970 created the necessity for comprehensive reforms of the state governance system, leading to the establishment of a centralized administrative structure, the creation of ministries and government institutions, the institutionalization of the civil service, and the gradual



development of consultative bodies. Furthermore, the article analyzes the role of tribal institutions, religious factors, and the balance between central authority and traditional social structures in ensuring political stability. The findings demonstrate that the political reforms initiated by Sultan Qaboos laid the legal and institutional foundations of the modern Omani state.

Kalit soʻzlar: *Ummon Sultonligi, Sulton Qobus, siyosiy institutlar, davlat boshqaruvi, Vazirlar Kengashi, Rivojlanish kengashi, Moliya kengashi, davlat qurilishi, siyosiy islohotlar.*

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmida Fors koʻrfazi mintaqasida davlat qurilishi va siyosiy institutlarning shakllanishi jarayoni yangi bosqichga koʻtarildi¹. Biroq ushbu jarayon barcha davlatlarda bir xil kechmadi. Ayrim mamlakatlarda siyosiy institutlar mustaqillikdan soʻng qisqa muddat ichida shakllangan boʻlsa, Ummon Sultonligida zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi 1970-yildan boshlab bosqichma-bosqich barpo etildi. Aynan 1970-yil 23-iyulda Sulton Qobus bin Saidning hokimiyat tepasiga kelishi mamlakat tarixida tub burilish yasab, zamonaviy Ummon davlatchiligining shakllanishiga asos soldi².

1970-yilgacha Ummon siyosiy va ma'muriy jihatdan zaif davlatlardan biri edi. Mamlakatda zamonaviy davlat apparati deyarli mavjud emas, markaziy boshqaruv qabila yetakchilari, mahalliy hokimlar va sulton farmonlariga tayangan holda amalga oshirilardi.

Siyosiy vaziyatni yanada murakkablashtirgan omillardan biri Dofar qoʻzgʻoloni (1965–1976) boʻldi³. Mazkur qurolli mojaro mamlakat hududiy yaxlitligiga jiddiy xavf tugʻdirib, markaziy hokimiyatning koʻplab hududlarda nazoratini cheklab qoʻydi. Shu sababli Sulton Qobus hokimiyatga kelgach, birinchi navbatda markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini yaratish, professional davlat apparatini shakllantirish va siyosiy institutlarni mustahkamlashni ustuvor vazifa

¹ Peterson J.E. Oman in the Twentieth Century. – London: Croom Helm, 1978. – P. 45.

² Townsend J. Oman: The Making of a Modern State. – London: Croom Helm, 1977. – P. 20.

³ Peterson J.E. Oman's Insurgencies: The Sultanate's Struggle for Supremacy. – London: Saqi Books, 2007. – P. 89.



sifatida belgiladi. 1970-yillarning dastlabki yillari Ummon tarixida davlat, millat va hukumat tushunchalari amaliy mazmun kasb eta boshlagan eng muhim davr hisoblanadi.

1970-yillarda davlat boshqaruvi tizimi tubdan qayta tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi faoliyati kengaytirildi, yangi vazirliklar va markaziy davlat idoralari tashkil qilindi, davlat xizmati professional asosga o'tkazildi hamda boshqaruv vakolatlari aniq taqsimlandi. Mazkur islohotlar natijasida davlatning hududlar ustidan nazorati kuchaydi va markaziy boshqaruvning institutsional asoslari yaratildi. Siyosiy tizimni bosqichma-bosqich takomillashtirish maqsadida 1981-yilda Davlat maslahat kengashi (State Consultative Council) tashkil etildi⁴. Ushbu institut keyinchalik Majlis ash-Shuro va Majlis Oman tizimining shakllanishiga zamin yaratib, davlat va jamiyat o'rtasidagi maslahatlashuv mexanizmlarini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi.

Ummon tajribasining o'ziga xosligi shundaki, siyosiy institutlar G'arb davlatlaridagi kabi keskin demokratik transformatsiyalar orqali emas, balki monarxik boshqaruv, ibodiylik an'analari va qabila tizimini saqlab qolgan holda evolyutsion yo'l bilan rivojlantirildi. Bu model davlat hokimiyatining legitimligini mustahkamlash, ichki siyosiy barqarorlikni ta'minlash va milliy birlikni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Shu jihatdan Ummonning siyosiy rivojlanish modeli Fors ko'rfazi davlatlari orasida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi⁵.

Adabiyotlar sharhi: Sulton Qobus davrida Ummon Sultonligida siyosiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishi masalasi xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Ushbu mavzuni o'rganishda J.E. Petersonning *Oman's Insurgencies: The Sultanate's Struggle for Supremacy* hamda *Oman in the Twentieth Century* asarlari muhim ilmiy manba hisoblanadi⁶. Muallif mazkur asarlarda 1970-yildan keyingi siyosiy islohotlar, davlat boshqaruvi organlarining shakllanishi va Sulton Qobusning

⁴ Valeri M. Oman: *Politics and Society in the Qaboos State*. – London: Hurst, 2009. – P. 97.

⁵ Valeri M. Oman: *Politics and Society in the Qaboos State*. – London: Hurst, 2009. – P. 145.

⁶ Peterson J.E. *Oman's Insurgencies: The Sultanate's Struggle for Supremacy*. – London: Saqi Books, 2007. – P. 45.



modernizatsiya siyosatini batafsil tahlil qilgan.

John Townsendning *Oman: The Making of a Modern State* asarida esa Ummonning zamonaviy davlat sifatida shakllanishi, vazirliklar, davlat kengashlari va markaziy boshqaruv tizimining rivojlanishi yoritilgan. Muallif siyosiy institutlarning mamlakat barqarorligini ta'minlashdagi o'rniga alohida to'xtaladi⁷. Marc Valeri o'zining *Oman: Politics and Society in the Qaboos State* asarida Ummon siyosiy tizimini institutsional yondashuv asosida tahlil qilib, davlat boshqaruvi organlari, maslahat institutlari hamda ularning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini chuqur o'rgangan⁸. Shuningdek, ushbu tadqiqotni tayyorlashda Sulton Qobus davriga oid memuar va tarixiy manbalar, jumladan *Behind the Scenes in Oman (1970–1990)* asaridan ham foydalanildi. Mazkur manbada davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish jarayoni, vazirliklar, Moliya va Rivojlanish kengashlari hamda Davlat maslahat kengashining tashkil etilishi haqidagi qimmatli ma'lumotlar keltirilgan⁹.

Sulton Qobus hokimiyatga kelishi va davlat boshqaruv tizimining qayta tashkil etilishi (1970–1990)

1970-yil 23-iyulda Sulton Qobus bin Said tomonidan amalga oshirilgan siyosiy o'zgarish Ummon tarixida yangi davrning boshlanishi bo'ldi¹⁰. Mazkur voqea nafaqat hokimiyat almashinuvi, balki mamlakatning siyosiy va ma'muriy tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamli modernizatsiya jarayonining boshlanishi sifatida tarixga kirdi. Mamlakatning aksariyat hududlarida markaziy hukumatning real ta'siri sezilarli darajada past bo'lganligi sababli davlat boshqaruvi yagona institutsional tizimga ega emas edi.

1971-yilda davlat boshqaruvi tizimi endigina shakllanayotgan bir paytda hukumat qarorlarini muvofiqlashtiruvchi maxsus maslahat organiga ehtiyoj yuzaga keldi. Shu sababli Muskatdagi Mudofaa kotibi Hugh Oldman yangi Sultonga maslahat berish hamda hukumat faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida maxsus ishchi guruh tuzdi. Mazkur guruh yarim rasmiy asosda faoliyat yuritib, keyinchalik

⁷ Townsend J. *Oman: The Making of a Modern State*. – London: Croom Helm, 1977. – P. 60.

⁸ Valeri M. *Oman: Politics and Society in the Qaboos State*. – London: Hurst, 2009. – P. 70.

⁹ *Behind the Scenes in Oman (1970–1990)*. – Muscat, 2010. – P. 40.

¹⁰ Peterson J.E. *Oman in the Twentieth Century*. – London: Croom Helm, 1978. – P. 35.



Muvaqqat Maslahat Kengashi (Interim Advisory Council) sifatida tanildi¹¹. Dastlab unga Sayyid Tarik boshchilik qilgan bo'lsa-da, vazirlar tayinlangach, uning faol ishtiroki asta-sekin kamayib bordi.

Muvaqqat Maslahat Kengashi rasmiy huquqiy maqomga ega bo'lmagan. Uning qarorlari yoki yig'ilishlari bo'yicha deyarli hech qanday rasmiy hujjatlar saqlanmagan. Kengash ko'proq hukumatning ilk davridagi boshqaruv bo'shlig'ini to'ldirish va Sultonga tezkor maslahatlar berish vazifasini bajargan. Sayyid Tarik 1970-yil sentabr oyida Ummonga qaytgach, ushbu kengash faoliyati tugatilgan. Bu esa keyinchalik rasmiy hukumat institutlarini shakllantirish zaruratini yanada yaqqol ko'rsatgan.

Sulton Qobus hukumatni tashkil etish jarayonida davlat apparatini zamonaviy tamoyillar asosida shakllantirishga kirishdi. Birinchi navbatda, Said bin Taymur davrida faoliyat yuritgan ayrim britaniyalik mansabdorlar lavozimidan ozod qilindi. Jumladan, Chauncy, Pelly, Hirst va Shebbeare xizmatlarini tugatish to'g'risida rasmiy qaror qabul qilindi¹². Shuningdek, Taraqqiyot kengashi (Development Council) kotibi Bill Heber-Percy Maskatda qolib, davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish ishlarini davom ettirdi. Taraqqiyot direktori Robin Young esa qayta tayinlanib, Dhofar bo'yicha Taraqqiyot direktori lavozimiga yuborildi. Moliyaviy maslahatchi Philip Aldous vaqtincha o'z vazifasini davom ettirib, 1970-yil dekabr oyida Moliya kotibi etib tayinlandi¹³. Mazkur tayinlovlar yangi davlat apparatini professional asosda shakllantirish siyosatining boshlanishi bo'ldi.

Sulton Qobusning 1970-yil 9-avgustdagi radio murojaati yangi siyosiy tizimning dastlabki dasturiy hujjati sifatida muhim ahamiyat kasb etdi¹⁴. Ushbu murojaatda uchta asosiy yo'nalish belgilanganini qayd etadi.

Birinchidan, davlatning rasmiy nomi "Ummon Sultonligi" deb e'lon qilindi. Shu bilan birga, Sayyid Tarikning Bosh vazir etib tayinlangani tasdiqlandi hamda

¹¹ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P. 71.

¹² Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P. 62.

¹³ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P. 79.

¹⁴ Townsend J. Oman: The Making of a Modern State. – London: Croom Helm, 1977. – P. 88.



yangi davlat ramzlari joriy etilishi ma'lum qilindi. Bu qaror Muskat, Ummon va Dhofarni yagona siyosiy makonga birlashtirish ramzi sifatida talqin qilindi.

Ikkinchidan, hukumat iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgiladi. Sulton yo'llar, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim va telekommunikatsiya sohalarini rivojlantirishni davlat siyosatining asosiy vazifalari sifatida e'lon qildi. Shu bilan birga, suv resurslarini o'rganish hamda ulardan oqilona foydalanish zarurligini alohida ta'kidladi. Uchinchidan, xorijda yashayotgan ummonlik muhojirlar Vatanga qaytishga chaqirildi. Zarurat tug'ilganda ularga afv berilishi hamda mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyati yaratilishi bildirildi. Ushbu siyosat natijasida keyingi yillarda xorijda ta'lim olgan va tajriba orttirgan ko'plab mutaxassislar davlat boshqaruvi tizimiga jalb qilindi.

1970-yilda hukumatning ilk tarkibi shakllantirildi¹⁵. Sayyid Tarik dastlab to'rt nafar vazirni tayinladi. Bular:

Sog'liqni saqlash vaziri;

Ta'lim vaziri;

Ichki ishlar va Adliya vaziri;

yil oxiriga kelib Axborot, Ijtimoiy xizmatlar va Mehnat vaziri. Mazkur vazirliklar negizida keyinchalik mustaqil davlat idoralari va departamentlar tashkil etildi. Aynan shu davrda zamonaviy ijro hokimiyati institutlarining amaliy poydevori yaratildi¹⁶.

1970-yildagi siyosiy o'zgarishlardan so'ng Sulton Qobus tashqi siyosatni davlat qurilishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Ushbu vazifani amalga oshirishda Bosh vazir Sayyid Tarik bin Taymur muhim rol o'ynadi. U tashqi siyosat bo'yicha maslahatchi etib ilgari Iordaniya diplomatik xizmatida ishlagan Omar Barounini tayinladi¹⁷. Barouni ilgari Liviyada diplomatik faoliyat olib borgan, keyinchalik Bayrutda yashagan va ibodiylik tarixi bo'yicha mutaxassis sifatida

¹⁵ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.48.

¹⁶ Townsend J. Oman: The Making of a Modern State. – London: Croom Helm, 1977. – P.67.

¹⁷ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.50.



tanilgan. Aynan u Ummonning Arab davlatlari bilan diplomatik aloqalarini tiklash va mamlakatning Arab Ligasiga a'zo bo'lishi uchun zarur siyosiy-huquqiy hujjatlarni tayyorlash ishlariga boshchilik qildi¹⁸. 1971-yil boshida Barouni tashabbusi bilan Arab davlatlariga maxsus diplomatik missiyalar yuborildi. Ushbu delegatsiyalar tarkibida Ta'lim vaziri Shayx Saud bin Ali al-Xaliliy, Sog'liqni saqlash vaziri doktor Asim Jamoliy va boshqa hukumat vakillari ishtirok etdilar. Delegatsiyalar Yaman, Saudiya Arabistoni, Iroq, Suriya, Livan, Iordaniya, Misr, Liviya, Sudan, Jazoir, Tunis, Marokash va Quvaytga tashrif buyurib, Ummonning yangi siyosiy yo'nalishini tushuntirish hamda Arab Ligasiga qabul qilinishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muzokaralar olib bordilar. 1971-yil mart oyida Ummon Arab Ligasiga a'zo bo'lish uchun rasmiy ariza topshirdi. Dastlab Janubiy Yaman (PDRY) tomonidan e'tirozlar bildirilgan bo'lsa-da, keng diplomatik faoliyat natijasida Arab Ligasi 1971-yil sentabr oyida Ummonni tashkilotning 17-a'zosi sifatida qabul qilishga rozilik berdi¹⁹. Mazkur qaror Saudiya Arabistoni tomonidan ilgari surilgan e'tirozlarning bartaraf etilishi hamda qirol Faysal bilan olib borilgan muzokaralar natijasida amalga oshdi.

Shundan so'ng Ummonning xalqaro huquqiy maqomini mustahkamlash bo'yicha faoliyat Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida davom ettirildi. 1971-yil 4-oktabrda BMT Xavfsizlik Kengashi Ummonni tashkilotga qabul qilishni tavsiya etdi. Oradan uch kun o'tib, 1971-yil 7-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi Ummonni tashkilotning 131-a'zosi sifatida rasman qabul qildi²⁰. Ovoz berishda 117 davlat yoqlab, PDRY qarshi, Kuba va Saudiya Arabistoni betaraf ovoz berdi. Shu tariqa Ummonning xalqaro huquq subyekti sifatidagi maqomi to'liq mustahkamlandi.

Arab Ligasi va BMTga a'zolikdan so'ng tashqi siyosat apparatini mustahkamlash ishlari davom ettirildi. Sayyid Tarik tashabbusi bilan Robert Anderson, Ghassan Shakir va Yahya Omarni hukumat faoliyatiga jalb etildi²¹. Ushbu

¹⁸ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.56.

¹⁹ Peterson J.E. Oman in the Twentieth Century. – London: Croom Helm, 1978. – P.78.

²⁰ Peterson J.E. Oman in the Twentieth Century. – London: Croom Helm, 1978. – P.79.

²¹ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.60.



shaxslar tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ayniqsa Robert Andersonning xalqaro moliyaviy doiralardagi tajribasi hamda Ghassan Shakirning arab mamlakatlaridagi aloqalari yangi hukumat uchun muhim diplomatik resurs vazifasini bajargan.

1971-yilda Londonda Sayyid Tarik tashabbusi bilan Sulton Qobus ushbu mutaxassislar bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda keyinchalik Sultonning eng yaqin maslahatchilaridan biriga aylangan Tim Landon ham ishtirok etdi. Sandhurst harbiy akademiyasida Qobus bilan birga tahsil olgan Tim Landon keyingi yillarda iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishda Sultonning eng ishonchli maslahatchilaridan biri sifatida faoliyat yuritdi²². 1971-yil oxiriga kelib davlat boshqaruvi tizimida iqtisodiy rejalashtirish va rivojlanish siyosatini markazlashtirish zarurati yuzaga keldi. Shu maqsadda dastlab Muvaqqat rejalashtirish kengashi tashkil etildi²³. Biroq ushbu organning vakolatlari aniq belgilanmagani, tenderlarni nazorat qilish va davlat shartnomalarini boshqarishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar sababli u qisqa muddat faoliyat yuritdi va keyinchalik tugatildi.

Shundan so'ng iqtisodiy boshqaruvni zamonaviy asosda tashkil etish maqsadida yangi mutaxassislar jalb qilindi. Jon Taunsend iqtisodiy maslahatchi, doktor Riyod Rais esa iqtisodiy rejalashtirish bo'yicha maslahatchi etib tayinlandi. Jon Taunsend ilgari Whitehead & Partners kompaniyasida faoliyat yuritgan hamda Said bin Taymur davridayoq Ummon iqtisodiyoti bo'yicha rivojlanish dasturini ishlab chiqishda qatnashgan mutaxassis edi. 1972-yil sentabr oyida Sulton Qobus raisligida Iqtisodiy va rivojlanishni rejalashtirish bo'yicha Oliy kengash tashkil etildi²⁴. Kengash raisi Sulton Qobus, rais o'rinbosari Sayyid Thuvayni, a'zosi doktor Riyod Rais, kotibi esa Jon Taunsend etib tayinlandi. Mazkur kengash mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, davlat rejalashtirish tizimini yaratish hamda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va boshqa xalqaro tashkilotlar

²² Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.63.

²³ Townsend J. Oman: The Making of a Modern State. – London: Croom Helm, 1977. – P.89.

²⁴ Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst, 2009. – P.96.



bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish vakolatiga ega bo'ldi.

Shuningdek, 1972-yilda Ummonning XVF (IMF), Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) hamda Jahon banki guruhi bilan hamkorligi yo'lga qo'yildi²⁵. Ushbu xalqaro moliyaviy institutlar ekspertlari mamlakatga tashrif buyurib, davlat boshqaruvi, iqtisodiy rejalashtirish va moliyaviy islohotlarni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berdilar. Aynan shu davrdan boshlab Ummon iqtisodiy siyosati xalqaro standartlar asosida shakllana boshladi. 1973-yildan boshlab Sulton Qobus davlat boshqaruvi tizimini yanada markazlashtirish va mavjud institutlarning vakolatlarini qayta taqsimlash siyosatini amalga oshirdi. Dastlab Bosh rivojlanish tashkiloti (Development Organization) faoliyati qayta ko'rib chiqildi. 1973-yil aprel oyida ushbu tashkilot Bosh rivojlanish tashkiloti sifatida qayta tuzildi, biroq uning vakolatlari amalda saroy devoni (Diwan) tomonidan bosqichma-bosqich o'zlashtirila boshladi. Shu bilan birga, Aloqa va jamoat xizmatlari vazirligi vakolatiga pochta, telegraf, telefon, elektr energiyasi, uy-joy qurilishi, fuqaro aviatsiyasi va portlar boshqaruvi kiritildi. 1973-yil oxirida esa Bosh rivojlanish tashkiloti tugatilib, uning vazifalari Rivojlanish vazirligiga o'tkazildi. 1974-yil oxirida hukumat tuzilmasi yana qayta ko'rib chiqildi²⁶. Natijada yirik vazirliklarning vakolatlari ajratilib, Jamoat ishlari vazirligi, Neft va minerallar vazirligi, Qishloq xo'jaligi va baliqchilik vazirligi hamda Savdo va sanoat vazirligi mustaqil davlat boshqaruvi organlari sifatida tashkil etildi. Shu bilan bir vaqtda Sulton huzurida Moliya kengashi va Rivojlanish kengashi faoliyat boshladi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy maqsadi boshqaruv samaradorligini oshirish emas, balki strategik qarorlarni bevosita Sulton nazorati ostiga o'tkazishdan iborat edi. 1973–1974-yillarda Diwan (Saroy devoni) Ummon davlat boshqaruv tizimining eng muhim institutlaridan biriga aylandi. Dastlab maslahat organi sifatida faoliyat yuritgan Diwan asta-sekin vazirliklar ustidan muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi markazga aylandi. Ayniqsa, davlat shartnomalarini tasdiqlash, yirik investitsiya loyihalarini muhokama qilish va davlat xarajatlarini nazorat qilishda

²⁵ Peterson J.E. Oman in the Twentieth Century. – London: Croom Helm, 1978. – P.77.

²⁶ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.82.



uning roli sezilarli darajada kuchaydi. 1973-yildan boshlab iqtisodiy rivojlanish, neft daromadlarini taqsimlash va yirik davlat xaridlari bo'yicha muhim qarorlar aynan Diwan orqali muvofiqlashtirilgan. Shu tariqa Diwan siyosiy qarorlar qabul qilish markaziga aylandi va vazirliklarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshira boshladi.

1972-yilda tashkil etilgan Iqtisodiy va rivojlanishni rejalashtirish bo'yicha Oliy kengash 1973–1974-yillarda davlat iqtisodiy siyosatini belgilovchi asosiy institutga aylandi. Ushbu kengash tarkibida Sulton Qobus rais, Sayyid Thuvayni rais o'rinbosari, doktor Riyod Rais a'zo va Jon Taunsend kotib sifatida faoliyat yuritdi.

Biroq 1973-yil aprel oyida doktor Riyod Rais iste'foga chiqqach, kengash faoliyati sustlashdi. Natijada davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsadida yangi iqtisodiy maslahatchilar jalb qilindi. Jon Taunsend iqtisodiy rejalashtirishni, Qays Zavaviy esa rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi.

1974-yil noyabr oyida hukumat huzurida Moliya kengashi tuzildi²⁷. Uning tarkibiga Qays Zavaviy, Ghassan Shakir, Yahyo Omar va Jon Taunsend kiritildi. Kengash mamlakatning moliyaviy ahvolini baholash, davlat xarajatlarini nazorat qilish va xalqaro moliya institutlari bilan muzokaralar olib borish vakolatiga ega bo'ldi.

1974-yilda davlat xizmatida shaffoflikni ta'minlash maqsadida ikki muhim normativ hujjat qabul qilindi. Birinchisi, 22/74-son Farmon (1974-yil 20-may) bo'lib, unda davlat shartnomalarini tuzish va ularni moliyaviy nazorat qilish tartibi belgilandi. Mazkur hujjat orqali davlat xaridlari ustidan markazlashgan nazorat mexanizmi joriy etildi.

Ikkinchisi, 43/74-son Farmon (1974-yil 25-noyabr) bo'lib, u manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratildi²⁸. Farmonga ko'ra:

davlat amaldorlariga shaxsiy biznes bilan shug'ullanish taqiqlandi;

²⁷ Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst, 2009. – P. 88.

²⁸ Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – P.74.



davlat lavozimini egallagach, tijorat faoliyatida ishtirok etish cheklab qo'yildi;

davlat amaldorlarining hukumat shartnomalaridan shaxsiy manfaat ko'rishi noqonuniy deb belgilandi;

Sultonning yozma ruxsatisiz davlat amaldorlari tijorat korxonalari bilan shartnoma tuzishi taqiqlandi;

Ushbu talablarni buzgan mansabdorlarni lavozimidan ozod qilish yoki ularga nisbatan jinoiy javobgarlik choralari qo'llash imkoniyati yaratildi. Bu farmonlar Ummon davlat boshqaruvida institutsional javobgarlik va davlat xizmatida halollik tamoyillarini shakllantirish yo'lidagi dastlabki muhim huquqiy islohotlardir²⁹.

1975-yilda Ummonda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish maqsadida moliyaviy va ma'muriy nazorat mexanizmlari tubdan qayta ko'rib chiqildi. 1974-yilda tashkil etilgan Moliya kengashi va Rivojlanish kengashi faoliyati kengaytirilib, ularning tarkibi malakali mutaxassislar hisobiga mustahkamlandi. Kengashlar davlat xarajatlarini nazorat qilish, rivojlanish loyihalarini baholash hamda hukumatning uzoq muddatli iqtisodiy siyosatini shakllantirish vakolatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, vakolatlar doirasi qayta belgilandi va davlat budjeti ustidan nazoratning institutsional asoslari yaratildi.

Davlat boshqaruvi tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri "Davlat boshqaruvini tashkil etish to'g'risida"gi qonunning ishlab chiqilishi bo'ldi. Mazkur qonun loyihasi Jahon banki ekspertlari, doktor Lutfi boshchiligidagi maslahatchilar guruhi hamda Rivojlanish kengashi ishtirokida tayyorlandi. Qonun hukumat tuzilmasini, vazirliklarning vakolatlarini, Vazirlar Kengashi faoliyatini, maxsus kengashlar va davlat idoralarining o'zaro munosabatlarini aniq belgilab berdi.

Qonunga muvofiq davlat hokimiyatining markaziy bo'g'inlari o'rtasidagi vakolatlar chegarasi aniq belgilandi. Unda Sultonning konstitutsiyaviy vakolatlari, vazirlarning mas'uliyati, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari

²⁹ Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst, 2009. – P.61.



hamda maxsus maslahat kengashlarining huquqiy maqomi mustahkamlandi. Shu tariqa avval alohida farmonlar asosida faoliyat yuritgan institutlar yagona boshqaruv tizimiga birlashtirildi.

Ushbu davrda moliyaviy nazorat tizimi sezilarli darajada kuchaytirilgan bo'lsa-da, Diwan (Saroy devoni) davlat xarajatlarini taqsimlashdagi eng muhim institut bo'lib qolaverdi. Ayniqsa, Sultonning shaxsiy qarorlari asosida amalga oshiriladigan xarajatlarni nazorat qilish amaliyotida Diwan markaziy rol o'ynagan. Shu sababli davlat boshqaruvida huquqiy institutlar mustahkamlangan bo'lsa ham, siyosiy qarorlar qabul qilishning asosiy markazi sifatida Saroy devonining mavqei saqlanib qoldi.

1976-yil sentabr oyida Ummon tarixida ilk bor Birinchi besh yillik rivojlanish rejasi (1976–1980) e'lon qilindi³⁰. Mazkur hujjat oddiy iqtisodiy dastur emas, balki davlat boshqaruvi institutlarining uzoq muddatli faoliyatini belgilab bergan strategik siyosiy hujjat edi.

Rivojlanish rejasida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, neftga qaramlikni kamaytirish, sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, baliqchilikni modernizatsiya qilish hamda investitsiyalarni mamlakat hududlari bo'yicha muvozanatli taqsimlash asosiy ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bundan tashqari, suv resurslarini boshqarish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida qayd etildi. Mazkur rejaning amalga oshirilishini nazorat qilish vakolati Rivojlanish kengashiga yuklatildi. Shu tariqa mazkur kengash davlatning strategik rejalashtirish instituti sifatida mustahkamlandi.

1975-yilda Dhofar urushining yakunlanishi siyosiy institutlarning hududiy integratsiyasini jadallashtirdi³¹. Janubiy viloyatlarda fuqarolik boshqaruvi bosqichma-bosqich tiklanib, avval harbiy boshqaruv ostida bo'lgan hududlarda davlat idoralari tashkil etila boshlandi.

³⁰ Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst, 2009. – P.85.

³¹ Peterson J.E. Oman's Insurgencies: The Sultanate's Struggle for Supremacy. – London: Saqi Books, 2007. – P.62.



1972-yil oktyabr oyida tashkil etilgan Dhofarni rivojlantirish boshqarmasi ushbu jarayonda asosiy institut sifatida faoliyat yuritdi³². Boshqarma yo'l qurilishi, infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar va mahalliy ma'muriyatni shakllantirish bilan shug'ullandi. 1971–1975-yillarda davlat fuqarolik xarajatlarining salmoqli qismi aynan janubiy hududlarni mamlakatning yagona siyosiy va ma'muriy tizimiga integratsiya qilishga yo'naltirilgan.

Shunday qilib, 1975–1976-yillarga kelib Ummon Sultonligida siyosiy institutlarning shakllanish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Dastlabki yillarda tashkil etilgan vazirliklar, maslahat kengashlari va rivojlanish organlari endilikda huquqiy asosga ega bo'lib, ularning vakolatlari aniq belgilandi. Natijada markazlashgan monarxik boshqaruv tizimi institutsional jihatdan mustahkamlanib, davlat boshqaruvining zamonaviy modeli shakllandi.

1980-yillarda Ummon Sultonligida siyosiy institutlarni yanada takomillashtirish va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini maslahatlashuv tamoyili asosida kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Ushbu davrda davlat boshqaruvi markazlashgan monarxik tizim asosida saqlab qolingan bo'lsa-da, qarorlar qabul qilish jarayoniga turli ijtimoiy qatlamlar vakillarini jalb etishga xizmat qiluvchi yangi institutlar tashkil etildi.

1981-yil 18-oktabrda Sulton Qobusning 84/81-sonli Farmoni bilan Davlat maslahat kengashi (Majlis al-Istishari li-d-Davla) tashkil etildi³³. Mazkur institut iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari yuzasidan hukumatga tavsiyalar beruvchi maslahat organi sifatida faoliyat boshladi. Kengash yuridik shaxs maqomi hamda ma'muriy va moliyaviy mustaqillikka ega bo'ldi. Uning tarkibi davlat va nodavlat sektor vakillaridan shakllantirilib, jami 45 nafar a'zodan iborat etib belgilandi. Shundan 17 nafari davlat sektori, 11 nafari xususiy sektor, 17 nafari esa mamlakat hududlari vakillari edi. A'zolar Sulton tomonidan tayinlangan bo'lib, ularning vakolat muddati ikki yil etib belgilandi³⁴.

³² The Middle East and North Africa 1977–1978. – London: Europa Publications, 1977. P.74.

³³ Royal Decree No. 84/81 Establishing the State Consultative Council. – Muscat, 1981. – P.79.

³⁴ Oman Annual Report 1984. – Muscat: Ministry of Information, 1985. – P.93.



Davlat maslahat kengashi qonun chiqaruvchi organ hisoblanmagan bo'lsa-da, u davlat boshqaruvi tizimida muhim maslahat instituti vazifasini bajardi. Kengash iqtisodiy va ijtimoiy qonun loyihalarini ko'rib chiqish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, rivojlanish dasturlarini muhokama qilish hamda davlat organlariga tavsiyalar berish vakolatiga ega edi. Kengash tomonidan qabul qilingan tavsiyalar uning raisi orqali bevosita Sultonga taqdim etilgan, hukumat organlari esa tavsiyalar qabul qilinmagan hollarda buning sabablarini asoslab berishga majbur bo'lgan. Bu esa davlat boshqaruvida maslahatlashuv mexanizmining institutsional asoslarini mustahkamladi.

1982-yilda Davlat maslahat kengashi faoliyati yanada takomillashtirilib, uning tarkibi 55 nafargacha kengaytirildi³⁵. Islohot natijasida hududlar vakilligi kuchaytirildi hamda davlat va xususiy sektor manfaatlarining kengroq ifodalanishiga erishildi. Mazkur o'zgarishlar kengashning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi maslahat beruvchi rolini yanada mustahkamladi.

1980-yillarning ikkinchi yarmida Davlat maslahat kengashi faoliyati yanada faollashdi³⁶. Kengash davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunal infratuzilma hamda hududlarni rivojlantirish masalalarini muntazam muhokama qilib bordi. Muhokamalar yakunida ishlab chiqilgan tavsiyalar Vazirlar Kengashi va tegishli vazirliklarga taqdim etilar, ularning ijrosi yuzasidan axborotlar muntazam ravishda kengashga taqdim etib borilardi. Garchi kengash qonun chiqarish vakolatiga ega bo'lmagan bo'lsa-da, u davlat boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirish va strategik qarorlarni ishlab chiqishda muhim maslahat instituti sifatida o'z mavqeini mustahkamladi.

1986-yilda neft narxlarining jahon bozorida keskin pasayishi Ummon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi³⁷. Mazkur sharoitda hukumat davlat xarajatlarini qayta ko'rib chiqish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish hamda rivojlanish

³⁵ Royal Decree No. 84/81 Establishing the State Consultative Council. – Muscat, 1981.

³⁶ Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst, 2009. – P.76.

³⁷ The Middle East and North Africa 1988. – London: Europa Publications, 1988. – P.38.



dasturlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilash choralarini ko'rdi. Bu jarayonda Moliya kengashi, Rivojlanish kengashi va Davlat maslahat kengashi o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritib, davlat moliyasini samarali boshqarish hamda iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Natijada siyosiy institutlar nafaqat ma'muriy boshqaruvni, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynadi.

1990-yilga kelib Ummon Sultonligida davlat boshqaruvining asosiy siyosiy institutlari to'liq shakllanib, ularning vakolatlari va o'zaro hamkorlik mexanizmlari aniq tizimlashtirildi. Vazirlar Kengashi, Diwan, Moliya va Rivojlanish kengashlari hamda Davlat maslahat kengashi markazlashgan monarxik boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismlariga aylandi. Aynan shu davrda yaratilgan institutsional asoslar 1991-yilda Majlis ash-Shuro, keyinchalik esa Majlis Oman tizimining tashkil etilishi uchun mustahkam siyosiy va huquqiy poydevor vazifasini o'tadi.

XULOSA

1970–1990-yillarda Sulton Qobus bin Said rahbarligida Ummon Sultonligida zamonaviy siyosiy institutlarni shakllantirish va davlat boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Ushbu davrda vazirliklar, Vazirlar Kengashi, Diwan, Moliya va Rivojlanish kengashlari hamda maslahat organlari tashkil etilib, davlat boshqaruvining institutsional asoslari yaratildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, siyosiy institutlar milliy an'analar va markazlashgan monarxik boshqaruv tamoyillari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirildi. Davlat boshqaruvini huquqiy jihatdan mustahkamlash, strategik rejalashtirish tizimini joriy etish va davlat organlari vakolatlarini aniq belgilash boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish dasturlari va neft daromadlaridan oqilona foydalanish davlat institutlarini mustahkamlash hamda mamlakatning siyosiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'ldi. 1981-yilda Davlat maslahat kengashining tashkil etilishi esa maslahatlashuv tamoyillarini rivojlantirib, siyosiy



institutlar evolyutsiyasining yangi bosqichini boshlab berdi.

Umuman olganda, Sulton Qobus davrida amalga oshirilgan institutsional islohotlar Ummonning zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratdi. Mazkur tajriba Fors ko'rfazi mintaqasida siyosiy modernizatsiyaning o'ziga xos modeli sifatida ilmiy ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Behind the Scenes in Oman (1970–1990). – Muscat, 2010. – 432 p.
2. Peterson J.E. Oman in the Twentieth Century. – London: Croom Helm, 1978. – 232 p.
3. Peterson J.E. Oman's Insurgencies: The Sultanate's Struggle for Supremacy. – London: Saqi Books, 2007. – 618 p.
4. Royal Decree No. 84/81 Establishing the State Consultative Council. – Muscat, 1981. – 14 p.
5. Sultanate of Oman: Economic Development Report. – Washington, D.C.: World Bank, 1975. – 146 p.
6. The Middle East and North Africa 1977–1978. – London: Europa Publications, 1977. – 1032 p.
7. The Middle East and North Africa 1988. – London: Europa Publications, 1988. – 1128 p.
8. Townsend J. Oman: The Making of a Modern State. – London: Croom Helm, 1977. – 221 p.
9. Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst & Company, 2009. – 320 p.
10. Oman Annual Report 1984. – Muscat: Ministry of Information, 1985. – 168 p.
11. Oman Economic Review. – Muscat, 1976. – 156 p.